

**“XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI VA  
AHAMIYATI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
TO‘G‘RISIDA  
HISOBOT**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Samarqand viloyati oila va xotin-qizlar boshqarmasi bilan hamkorlikda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida 2025-yil 11-fevral kuni “Xotin-qizlarning ilm-fan taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman tashkil etildi.

Tadbirni Samarqand davlat universiteti ilmiy-ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor H.A.Xushvaqtov ochib berdi



Tadbirda falsafa va milliy g‘oya kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc) Ergasheva Maxbuba Hotambekovna “Ilm-fan sohasidagi xotin-qizlarning o‘rni va ahamiyati (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti misolida), mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc) Muxitdinova Nazmiya Muslihiddinovna “O‘zbekistonning lisoniy-adabiy va madaniy rivojida olim xotin-qizlarning o‘rni”, Jahon tarixi kafedrasi mudiri, “Shuhrat” medali sohibasi **Hamroqulova Shohista** “O‘zbekistonning tarixchi - olim ayollari”, Biokimyo instituti genetika va biotexnologiya kafedrasi tayanch doktoranti **Eshbekova Guljaxon G‘ofur qizi** “Biologiya va atrof-muhit muhofazasida iqtidorli yoshlarning innovatsion g‘oyalari”, Pedagogika

ta'limi fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 404-guruh talabasi **Badalova Sevilya** "Yangi O'zbekistonning bo'lajak olimasiman", Pedagogika ta'limi fakulteti Sport yo'nalishi 304-guruh talabasi **Polvonova Nilufar** "Yangi O'zbekiston qizlari ilm yo'nalishida birlashaylik!" mavzularida o'zlaring ilmiy ishlari va ijod-faoliyati haqida fikr bildirildi hamda ma'ruzalari tinglandi. Anjumanda Koferensiyaning kun tartibiga qo'yilgan jami 8 ta ma'ruza tinglandi. Ma'ruzada so'zga chiqqan universitetning professor-o'qituvchilari, doktorantlari va talaba-qizlari xotin-qizlar ilmiy salohiyatini oshirish, ilmiy tadqiqot natijalarini hayotga tatbiq etishga qaratilgan ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari haqida fikr bildirdi. Yurtimizda faoliyat olib borayotgan olima ayollar hamda xotin-qiz talabalarning ilm-fan sohasiga kengroq jalb etish, olima ayollar safini kengaytirish, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, gender tengligini ta'minlash bo'yicha amaldagi say-xarakatlar xususida fikr almashinildi.



Ayolning umuminsoniy va milliy qadriyatlarni mustahkamlashdagi roli va ishtiroki borasida universitetda faoliyat olib borayotgan va ilmiy salohiyatning oshirilishida o'zining hissasini qo'shib kelayotgan xotin-qizlar alohida e'tirof etildi



Tadbir so'ngida SamDU filologiya fakultetining pedagogik ta'lim fakulteti, san'atshunoslik yo'nalishi 431-guruh talabasi, Nihol mukofoti sovrindori Jafarova Diyora tomonidan yangragan "Qo'zg'alur" nomli qo'shig'i ishtirokchilarga xushkayfiyat ulashdi.

Anjumanda so'zga chiqqan hamda ilmiy faoliyati mobaynida natijalarga erishgan va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol bo'lgan, ilm-fan rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan xotin-qizlar Oila va xotin-qizlar boshqarmasi hamda Sammarqand davlat universiteti jamoasi tomonidan munosib taqdirlandi.

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar  
bo'yicha prorektor**



**H.Xushvaqtov**